



**Elboyeva Shaxnoza Bo'riniyozovna,**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*  
 "Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti v.b.,  
 e-mail: elboyevaqarshi@gmail.com

## MAKTABGACHA, MAKTAB, O'RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA'LIMI SOHASIDA XOTIN- QIZLARNING O'RNI: TARIXIY TAHLIL

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.458>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha, maktab ta'limi, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimlarida xotin-qizlarning o'rni va ularning tarixiy rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Ta'lim sohasida ayollarning ishtiroki XX asr boshlaridan boshlab sezilarli darajada oshib, ularning pedagogik faoliyati, ijtimoiy mavqeyi va ta'lim islohotlaridagi hissasi alohida e'tibor talab qila boshladi. Tadqiqotda xotin-qizlarning pedagogik jarayondagi faollashuvi, ularning ta'lim sifati va tarbiya jarayoniga qo'shgan salmoqli hissasi hamda gender tenglikni ta'minlash borasidagi tarixiy o'zgarishlar yoritiladi.

**Tayanch so'zlar:** xotin-qizlar, ta'lim tarixi, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi, gender tenglik, pedagogika.

**Аннотация.** В статье рассматривается роль женщин в системе дошкольного, школьного, среднего специального и профессионального образования Узбекистана, а также анализируется историческая динамика их участия в сфере образования. Начиная с начала XX века, вклад женщин в педагогическую деятельность значительно возрос, что требует научного осмысления их вклада в улучшение качества образования и укрепление социального статуса. В исследовании раскрываются особенности активизации женщин в педагогической сфере, их влияние на воспитательно-образовательный процесс и исторические изменения, направленные на обеспечение гендерного равенства в сфере образования.

**Ключевые слова:** женщины, история образования, дошкольное образование, школьное образование, среднее специальное образование, профессиональное образование, гендерное равенство, педагогика.

**Annotation.** This article examines the role of women in preschool, primary, secondary, specialized, and vocational education in Uzbekistan, focusing on the historical development of their participation in the educational sphere. Since the early 20th century, women's involvement in teaching and educational reforms has significantly increased, contributing to improvements in academic quality and social development. The study highlights the growing engagement of women in pedagogical activities, their influence on teaching and upbringing processes, and historical changes aimed at promoting gender equality in the education system.

**Keywords:** women, history of education, preschool education, school education, secondary specialized education, vocational education, gender equality, pedagogy.

**Kirish.** Xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi roli nafaqat pedagogik jarayon, balki ijtimoiy taraqqiyot va gender tenglik masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston tarixida

ayollarning ta'lim sohasidagi faoliyati XX asr boshlaridan boshlab sezilarli darajada rivojlandi. Ularning maktabgacha, maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi sohalaridagi hissasiga nafaqat

ilmiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyat qarata boshlandi. Ushbu maqola xotin-qizlarning tarixiy rivojlanish jarayoni va ta'lim tizimida tutgan o'rnini tahlil qilishga qaratilgan.

Xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi o'rni jamiyat taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sanaladi. Ta'lim jarayonida ayollarning faolligi nafaqat ularning shaxsiy intellektual salohiyatini yuksaltiradi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ta'lim tizimi tarixiy jarayonlar davomida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lib, bu o'zgarishlar xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlari va kasbiy rivojlanishida turlicha aks etgan. Mazkur maqola maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimlarida xotin-qizlarning o'rnini tarixiy tahlil qilishga bag'ishlanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida xotin-qizlarning ishtiroki tarixan muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, turli davrlarda ularning ta'lim olish imkoniyatlari, ijtimoiy mavqeyi va kasbiy o'sish ko'rsatkichlari bir xil bo'lmagan. Sovet davri, mustaqillikning dastlabki yillari va bugungi zamonaviy islohotlar davrida ayollarning ta'lim olish imkonlari, pedagogik jamoalardagi ulushi, rahbarlik lavozimlarida namoyon bo'lishi keskin farq qiladi. Tarixiy jarayonlarda xotin-qizlarning ta'limdagi faolligi oshgan bo'lsa-da, ayrim hududiy tafvotlar, gender stereotiplari, kasb-hunar ta'limida ayollarning ayrim yo'nalishlardagi kam ishtiroki, mutaxassislikka mos bandlik darajasining yetarli emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun, bugun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida xotin-qizlarning o'rni va ishtiroki qanday shakllangani, qaysi tarixiy bosqichlarda qanday omillar bu jarayonga ta'sir ko'rsatgani hamda mavjud muammolarning ildizlari tarixiy rivojlanish mantiqi bilan qay darajada bog'liqligini chuqur ilmiy tahlil qilish zarurati mavjud.

Maktabgacha ta'lim tizimi qadimdan ayollarning faoliyat maydoni hisoblangan. XX asr boshlarida maktabgacha tarbiya muassasalari rivojlanishi bilan pedagogika sohasida ayollar soni ortdi. Ular bolalarning ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasida yetakchi rol o'ynashdi. Shu davrda ayollarning professional tayyorgarlik kurslari, pedagogik seminarlar orqali malakasi oshirildi va maktabgacha ta'lim tizimining

rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shildi. Maktabgacha ta'lim tizimi tarixan ayollar faol ishtirok etgan sohalaridan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida maktabgacha muassasalarning kamligi bois bu bosqichda ayollarning pedagog sifatida tutgan o'rni chegaralangan edi. Sovet davridan boshlab esa bolalar bog'chalariga davlat e'tiborining ortishi ayol tarbiyachilar sonining ko'payishiga sabab bo'ldi. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimining kengayishi, nodavlat bog'chalar tashkil etilishi, tarbiyachi-pedagoglarning malakasini oshirish dasturlari xotin-qizlarning mazkur sohada mutaxassis sifatida faollashuviga xizmat qildi. Shunga qaramay, tarixiy stereotiplar tufayli maktabgacha ta'limning, asosan, "ayollar sohasi" sifatida shakllanib qolgani gender muvozanatini buzmoqda.

Maktab ta'limi sohasida xotin-qizlar o'qituvchi va ma'muriy xodim sifatida faoliyat yuritgan. Sovet davrida ayollar maktablarda ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ular o'quv jarayonini samarali tashkil qilish, fanlarni o'qitish va tarbiya ishlarini olib borishda markaziy rol o'ynagan. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat ayollarning ijtimoiy mavqeyini oshirish, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etishda muhim vosita bo'ldi<sup>1</sup>.

O'zbekiston hududida qadimdan savodxonlik an'analari bo'lgan bo'lsa-da, XX asr boshigacha qizlarning ta'lim olishi chegaralangan bo'lgan. Jadidchilik harakati qizlar maktablarini tashkil etish orqali yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Sovet davrida majburiy ta'lim tizimining joriy etilishi natijasida qizlar o'rtasida savodxonlik darajasi keskin oshdi va ayollar pedagogik kasblarning asosiy qismini egallay boshladilar. Mustaqillik davrida umumiy o'rta ta'limda qiz bolalarning qamrovi 99 foizdan yuqori bo'lishiga erishildi. Biroq ayrim hududlarda o'quvchilar, ayniqsa, o'smir qizlarning maktabdan erta ajralishi holatlari hanuz uchrab turdi. Bu esa tarixiy mentalitet, oiladagi ijtimoiy-psixologik bosim va iqtisodiy omillarning ta'sirini ko'rsatadi.

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida xotin-qizlar nafaqat o'quvchi sifatida, balki o'qituvchi va ustoz sifatida ham faol qatnashgan. Sovet davrida

<sup>1</sup> Mardiyeva, G. K. Situation of women's education in Uzbekistan in the 50s of the XX century in the interpretation of Samarkand region. EPRA International Journal of Research & Development (2023-09-25) – Maqola Samarkand mintaqasida ayollarning o'rta maktab ta'limida ishtirokini tahlil qiladi.

kasb-hunar maktablarida ayollar pedagogik va amaliy tayyorgarlikning asosiy qismini egallagan. Ularning ishtiroki kasbiy malaka va ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda ham xotin-qizlar kasb-hunar ta'limining turli tarmoqlarida yetakchi pozitsiyalarda faoliyat ko'rsatmoqda. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida xotin-qizlarning ishtiroki tarixiy davrlarga qarab keskin farq qiladi. Sovet davrida texnikumlarda ayollar ulushi nisbatan kam bo'lgan, chunki ko'plab texnik sohalar "erkak kasbi" sifatida talqin qilingan. Mustaqillikdan keyingi modernizatsiya jarayonlarida, ayniqsa 2017-yildan so'ng, islohotlar natijasida kasb-hunar ta'limi tizimi kengaytirildi va qizlar uchun yangi yo'nalishlar ochildi. Ammo texnika, muhandislik, IT kabi yo'nalishlarda xotin-qizlar ulushi hanz past darajada. Bu holat tarixiy gender stereotiplarining davomiyligidan dalolat beradi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilganda, xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi ishtiroki ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligi aniqlanadi. Ayollar pedagogik faoliyat orqali nafaqat ta'lim sifatini oshirdi, balki jamiyatda gender tenglikni mustahkamlashga, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo'shdi. Shu bois, ularning tarixiy o'rni va hissa qo'shgan faoliyati bugungi kun pedagogik ilm-fani uchun muhim manba hisoblanadi<sup>2</sup>.

O'zbekistonning bugungi gender siyosati tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq. Ayollarning ta'limga keng jalb etilishi sovet davrida boshlangan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida ularning davlat boshqaruvi, ta'lim muassasalaridagi rahbarlik lavozimlari va ilmiy faoliyatdagi faolligi yanada oshdi. Biroq siyosiy-ijtimoiy islohotlarga qaramasdan, ayrim tarixiy qarashlar, oilaviy an'analar va gender rollar haqidagi tasavvurlar xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy sohalarida erkin harakatlanishini cheklashi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida gender tengligi siyosatini davom ettirish, tarixiy saboqlarni chuqur o'rganish va ular asosida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarbdir.

Umuman olganda, o'zbek ayol olimlarining ilmiy rahbarlik va innovatsion boshqaruvdagi

<sup>2</sup> Khayrullayeva M. Participation of women and girls in the field of history in Uzbekistan (as an example of Tashkent City State Higher Education Institution). *Oriental Journal of History, Politics and Law* (2024 11 21), pp. 101–108.

roli nafaqat milliy ilm-fan rivoji, balki global raqobatbardoshlik va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi uchun ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda<sup>3</sup>.

Xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi roli nafaqat pedagogik jarayon bilan, balki jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda xotin-qizlar maktabgacha, maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi sohalarida faoliyat yuritib, pedagogik jarayonning sifatini oshirish, yosh avlodni tarbiyalash va gender tenglikni mustahkamlashga hissa qo'shganlar.

Tarixiy va pedagogik manbalarni tahlil qilganda, xotin-qizlarning ta'lim sohasidagi roli turli davrlarda o'zgarib borgan ko'rinadi. Masalan, Lyotar o'zining "Postmodern holat: Zamonaviylik haqidagi hisobot" asarida ijtimoiy o'zgarishlarning shaxsning rolga qanday ta'sir qilishi haqida fikr bildiradi va pedagogik jarayonda ayollarning faol ishtiroki zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi ekanini ta'kidlaydi<sup>4</sup>.

S.R. O'tkurov xotin-qizlarning XX asrdan boshlab O'zbekistonda pedagogik faoliyatga jalb etilishi va ularning ijtimoiy mavqeyini oshiruvchi jarayonlarni tahlil qiladi. U o'qituvchilik faoliyatining ayollar uchun nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy o'sish vositasi ekanini ko'rsatadi<sup>5</sup>.

Shuningdek, Z.Karimova maktabgacha va maktab ta'limida xotin-qizlarning pedagogik roli va ularning tarbiyaviy ishlaridagi hissasi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. U xotin-qizlarning faolligi pedagogik jarayonning sifatini oshirishga, bolalarda axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilganini qayd etadi<sup>6</sup>.

Bundan tashqari, xalqaro manbalarda (UNESCO, 2010; J.Stromquist, 2015) ayollarning ta'lim tizimidagi ishtiroki global tajriba bilan solishtiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xotin-

<sup>3</sup> Elboyeva S. The Role of Women in the Development of the Education System in Uzbekistan (19912023). *Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice* (2025 02 08)..

<sup>4</sup> MadalinskaMichalak J., Mamadaminova N. Female leadership in higher education in Uzbekistan: opportunities and challenges. *Education in the 21st Century* (2022), Vol. 7, No. 1, pp. 192–202.

<sup>5</sup> Kholiqov G., Abduganiyeva U. Socioeconomic and cultural life of women in Uzbekistan during the independence period (a case study of Qashqadaryo region). *Analysis of Modern Science and Innovation* (yy).

<sup>6</sup> United Nations / UN Women. Committee Experts Question Impact of Patriarchal Tradition on Situation of Women in Uzbekistan. Meetings Coverage and Press Releases (2001).

qizlar nafaqat pedagog sifatida, balki ijtimoiy faol shaxslar sifatida ta'lim jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, gender tenglikni mustahkamlash, kasbiy tayyorgarlikni oshirish va pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda<sup>7</sup>.

Xotin-qizlar maktabgacha ta'lim sohasida ustoz va tarbiyachi sifatida faoliyat yuritgan. XX asr boshlarida ular pedagogik kurslar va seminarlar orqali malaka oshirib, maktabgacha ta'limning sifatini yaxshilashga hissa qo'shgan. Maktab ta'limida xotin-qizlar o'qituvchi va ma'mur sifatida faol qatnashib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etgan. Sovet davrida ayollar maktablarda ko'pchilikni tashkil qilgan va ularning pedagogik faoliyati ijtimoiy mavqeni oshirishda ham muhim rol o'ynagan. Ularning amaliy va pedagogik faoliyati kasbiy malaka, jamiyat taraqqiyoti va gender tenglikni ta'minlashda asosiy omil bo'lgan<sup>8</sup>.

Xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi faoliyatini rivojlantirish masalalari nafaqat O'zbekistonda, balki global miqyosda ham dolzarbdir. Xorijiy davlatlarning tajribasi tahlil qilinganda quyidagi muhim jihatlari va tavsiyalar kelib chiqadi:

1. Pedagogik malaka va doimiy professional rivojlanish. Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida pedagoglarning, xususan, xotin-qizlar malakasini oshirish uchun muntazam kurslar, sertifikatlash tizimi va professional master-klasslar joriy etilgan. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, malakali pedagog xodimlar ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, O'zbekistonda ham maktabgacha, maktab va kasb-hunar ta'limi sohasida xotin-qizlarning malakasini oshirish tizimli ravishda tashkil etilishi lozim.

2. Gender tenglik va yetakchi pozitsiyalarni kengaytirish. Xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlar pedagogik faoliyat bilan bir qatorda rahbarlik va boshqaruv pozitsiyalariga ham keng jalb etiladi. Masalan, Finlandiya va Kanada maktab tizimida direktorlar va o'quv-metodik markaz rahbarlarining katta qismi ayollardir. Shu tajriba O'zbekistonda xotin-qizlarni ta'lim muassasalari boshqaruvi va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlariga faol jalb etishni tavsiya qiladi.

<sup>7</sup> Ministry of Public Education (O'zbekiston). Gender equality in the system of the Ministry of Public Education. Rasmiy hujjat (2019 11 29).

<sup>8</sup> Tuychiyeva, N. Women's Education in Uzbekistan: from Illiteracy to Higher Education (1924–1991). Zenodo (2025).

3. Innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalarni tatbiq etish. Xorijiy mamlakatlar (AQSh, Janubiy Koreya, Singapur) pedagoglarni innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish orqali ta'lim jarayonini samarali rivojlantiradi. Bu tajriba O'zbekistonda xotin-qizlarning pedagogik faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, media va raqamli savodxonlikni oshirish muhimligini ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mentorlik tizimi. Yevropa mamlakatlarida ayollarning kasbiy rivojlanishi va pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun mentorlik dasturlari va professional hamkorlik klublari mavjud. Bu tizim pedagogik jarayonda tajribali ustozlar orqali yosh xotin-qizlarning o'sishiga imkon yaratadi. Shu asosda, O'zbekistonda ham pedagogik mentorlik va hamkorlik tizimini kengaytirish tavsiya etiladi.

5. Xalqaro tajriba almashuvi. Xorijiy mamlakatlarda pedagoglar va ta'lim muassasalari orasida tajriba almashish dasturlari faol ishlaydi. Ular xotin-qizlarga global ta'lim standartlarini o'rganish, ilg'or pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi. Shu sababli, O'zbekistonda ham xotin-qiz pedagoglar uchun xalqaro seminarlar, stajirovkalar va konferensiyalarni kengaytirish tavsiya etiladi.

Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning ta'lim sohasidagi faoliyati faqat pedagogik jarayonning sifatini oshirish bilan cheklanmaydi, ularning ijtimoiy mavqeyini kuchaytirish, gender tenglikni mustahkamlash hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishga xizmat qiladi. Shu asosda O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim sohasidagi rolini tizimli rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish uchun bir qator ilmiy-tadqiqot asosidagi takliflar ilgari suriladi: pedagogik malaka va doimiy professional rivojlanish tizimini joriy etish; xotin-qizlarni ta'lim muassasalari boshqaruvi va rahbarlik pozitsiyalariga keng jalb etish; innovatsion pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish; mentorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish hamda xalqaro tajriba almashuvi va stajirovkalarni kengaytirish. Ushbu takliflar xotin-qizlarning pedagogik faoliyatini mustahkamlash va ta'lim jarayonining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada xotin-qizlarning maktabgacha, maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limidagi roli

tarixiy tahlil asosida yoritildi. Ularning pedagogik faoliyati ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy mavqeni kuchaytirish va gender tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga, ayollarning faol ishtiroki maktabgacha tarbiya, maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimlarida sifatli pedagogik jarayonni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning ta'lim sohasidagi faolligi va professional malakasi nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan ham yuqori baholanadi.

Maktabgacha, maktab ta'limi hamda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida xotin-qizlarning tutgan o'rni tarixiy taraqqiyot jarayonida bosqichma-bosqich mustahkamlanib bordi. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar ta'limi dastlab ijtimoiy-ma'naviy to'siqlar, iqtisodiy cheklovlar va gender stereotiplari ta'sirida sust rivojlangan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmi va ayniqsa mustaqillik yillarida ularga yaratilgan imkoniyatlar sezilarli darajada kengaydi. Bugungi kunda xotin-qizlarning ta'lim tizimidagi ishtirokiga nafaqat ijtimoiy tenglik tamoyilining ro'yobga chiqishi, balki jamiyatning intellektual salohiyati va iqtisodiy barqarorligining muhim omili sifatida qaralmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ayol tarbiyachilarning ustunligi, maktablarda xotin-qizlarning o'qituvchi sifatidagi yetakchi mavqeyi, shuningdek, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida

qizlarning kasb tanlashi uchun yaratilgan sharoitlar gender tenglikning amaliy ko'rinishidir. Ayniqsa, texnik, muhandislik, axborot texnologiyalari kabi an'anaviy "erkaklar sohalari"ga qizlarning qiziqishi ortayotgani tarixiy nuqtayi nazardan muhim yangilanishdir.

Tarixiy tahlil shuni anglatadiki, ayollar ta'limi masalasining davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi, qonunchilik asoslarining mustahkamlanishi hamda jamiyatda gender madaniyatining oshishi bugungi yutuqlarning asosiy omillaridir. Shu bilan birga, hududlar bo'yicha imkoniyatlar tengligi, kasb-hunar tanlashdagi stereotiplar, ayollarning ilmiy va rahbarlik lavozimlarida yetarlicha vakillik qilmasligi kabi masalalar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim sohasidagi o'rni va ularga berilgan imkoniyatlar tarixiy jarayonda sezilarli rivojlangan bo'lsa-da, mavjud salohiyatni yanada to'liq ro'yobga chiqarish uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, gender tenglikni chuqurlashtirish va ayollarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish davom etishi lozim. Bu nafaqat ta'lim sifatini, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi strategik omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mardiyeva, G. K. Situation of women's education in Uzbekistan in the 50s of the XX century in the interpretation of Samarkand region. *EPR International Journal of Research & Development* (2023-09-25).
2. Khayrullayeva, M. Participation of women and girls in the field of history in Uzbekistan (as an example of Tashkent City State Higher Education Institution). *Oriental Journal of History, Politics and Law* (2024 11 21), pp. 101–108.
3. Elboyeva, S. The Role of Women in the Development of the Education System in Uzbekistan (1991-2023). *Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice* (2025-02-08).
4. MadalinskaMichalak, J., Mamadaminova, N. Female leadership in higher education in Uzbekistan: opportunities and challenges. *Education in the 21st Century* (2022), Vol. 7, No. 1, pp. 192–202.
5. Kholiqov, G., Abduganiyeva, U. Socioeconomic and cultural life of women in Uzbekistan during the independence period (a case study of Qashqadaryo region). *Analysis of Modern Science and Innovation*.
6. United Nations / UN Women. Committee Experts Question Impact of Patriarchal Tradition on Situation of Women in Uzbekistan. *Meetings Coverage and Press Releases* (2001).
7. Ministry of Public Education (O'zbekiston). Gender equality in the system of the Ministry of Public Education. *Rasmiy hujjat* (2019-11-29).
8. Tuychiyeva, N. Women's Education in Uzbekistan: from Illiteracy to Higher Education (1924–1991). *Zenodo* (2025).